

RO'ZMETOV Muhammad Mustafo
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
tayanch doktoranti,
Mir Arab oliy madrasasi o'qituvchisi
e-mail: mustafohafiz0880@gmail.com

HANAFIY MAZHABIDA YOZILGAN ILK ASARLAR

EARLY WORKS WRITTEN IN THE HANAFI SCHOOL

ПЕРВЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ, НАПИСАННЫЕ В ХАНАФИТСКОМ МАЗХАБЕ

Annotatsiya. Hanafiy mazhabi fuqaholari kitob ta'lif etishda boshqa mazhablardan alohida ajrab turadilar. Abu Hanifa (r.h.) zamonlaridan to hozirgi kunimizgacha hanafiy mazhabida juda ko'p asarlar yaratilgan. O'sha zamonlarda Imom Muhammad yozib qoldirgan "Asl" kitoblari mazhab doirasida ilk ta'lif etilgan asarlar sanaladi. Imom Muhammad yozgan mazkur asar yana "Zohirur-rivoya" deb ham nomlanadi. Shu asarlar orqali hanafiy mazhabi butun jahonga yoyilishi uchun tamal toshi qo'yildi. Keyingi fuqaholar ham uning kitobiga suyanib asarlar bitishgan. Ayrim faqihlar esa "Asl" kitobiga sharhlar yozgan. Imom Muhammadning mazkur asarlari mazhab doirasida eng mo'tamad, doimo unga suyaniladigan, biron zarurat bo'lmasa unga xilof qilib bo'lmaydigan asosiy manba hisoblanadi. Ushbu maqolada mazkur mazvu atroflicha yoritib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Ko'fa, fiqh, faqih, mazhab, hanafiy, asl, mabsut, zohirur-rivoya, ziyodat, fuqaho.

Abstract. The jurists of the Hanafi school of thought are distinguished from other schools of thought in their writing of books. From the time of Abu Hanifa (may Allah have mercy on him) to the present day, many works have been written in the Hanafi school of thought. The books "Asl" written by Imam Muhammad at that time are considered the first works written within the school of thought. This work written by Imam Muhammad is also known as "Zahiru-r-Riwayah". Through these works, the foundation stone was laid for the spread of the Hanafi school of thought throughout the world. Subsequent jurists also wrote works based

on his book. Some jurists wrote commentaries on the book "Asl". These works of Imam Muhammad are the most reliable within the school of thought, always relied on, and the main source that cannot be contradicted unless there is a need. In this article will be covered this topic in detail.

Keywords. Kufa, fiqh, jurist, madhhab, Hanafi, asl, mabsut, zahir-ur-rawaya, ziyadat, fuqaha.

Аннотация. Юристы ханафитского мазхаба отличаются от других мазхабов написанием своих книг. Со времен Абу Ханифы (да помилует его Аллах) и до наших дней в ханафитском мазхабе было создано множество трудов. «Оригинальные» книги, написанные имамом Мухаммадом в то время, считаются первыми произведениями, написанными в рамках секты. Это произведение, написанное имамом Мухаммадом, также известно как «Захир-ур-Ривая». Благодаря этим трудам была заложена основа для распространения ханафитского мазхаба по всему миру. Последующие юристы также писали труды, основанные на его книге. Некоторые правоведы написали комментарии к книге «Асл». Эти труды имама Мухаммада считаются наиболее надежным, всегда используемым и важнейшим источником в мазхабе, и им нельзя противоречить, если только это не является абсолютно необходимым. В этой статье подробно рассматривается эта тема.

Ключевые слова: Куфа, фикх, правовед, мазхаб, ханафит, асл, мабсут, захир-ур-равая, зиядат, фукаха.

KIRISH

Hanafiy mazhabi qolgan mazhablarga nisbatan oldin paydo bo'lgan. Barcha mazhablar ichida birinchi paydo bo'lgan mazhab deyish ham mumkin. Tabiiyki ushbu holat mazhabni shakllanib rivojlanishiga turtki bo'lgan. Molikiy, Shofe'iy va Hanbaliy mazhablari shakllanish arafasida, hanafiy mazhabida ilk kitoblar yozilib bo'lgan edi. Mazkur kitoblar "Zohirur rivoya" deb atalib, ular mazhabning asosini tashkil qiladi.

ASOSIY QISM

Hanafiy mazhabi imom Abu Hanifaning (r.h.) vafotlaridan keyin u kishining shogirdlari

va ular yozib qoldirgan qimmatli asarlari bilan to'liq shakllanib, bir mazhab holiga kelgan. Abu Hanifaga (r.h.) bir qancha asarlar nisbat berilib, ba'zi manbalarda uni hatto ilk fiqh kitobi yozgan faqih sifatida ko'rsatilsa-da, u kishining fiqhiy asar ta'lif qilgani ma'lum emas. Chunki uning davri tobeinlar zamoni bo'lib, hali diniy ilmlarning barchasi tartibga solib ulgurilmagan, diniy fan sohasining har birida ham kitoblar yozish yo'lga qo'yilmagan edi. To'g'ri, o'sha davrlardayoq Madina fuqaholari Abdulloh ibn Umar (612-693), Oisha (613-678), Abdulloh ibn Abbos (619-686), Iroq faqihlari esa Ali ibn Abu Tolib (600-661) va Abdulloh ibn Mas'ud (590-653) kabi ulug' sahobalarning, Ko'fa ulamolari Shurayx (vaf. 78/697) kabi ulug' tobeinning qozilik davrida chiqargan fiqhiy fatvolarini jamlashgan edi [9:99-100]. Tobeinlarning ulug'laridan bo'lmish Ibrohim Naxaiy (666-715), Hammod Ko'fiy (vaf. 120/738) o'z fatvolarini to'plagani ham naql qilingan. Lekin bular kitob holida bo'lmagan, kitob bo'lib tarqalgan emas edi. Ba'zi mujtahidlarga bulardan xabardor, o'z fatvolarida ulardan foydalanar edi, xolos. Ilm shahrining darvozasi deya madh qilingan Ali ibn Abu Tolibning ba'zi bir fiqhiy hukmlar yozilgan qog'ozlarni ko'tarib yurganini odamlar ko'rishgan edi.

Keyinchalik diniy fanlarning ham nazariy, ham amaliy qismlari ishlab chiqildi, kitoblar yozish, fiqhiy qarash va fikrlarni mavzularga ajratish boshlandi. Birinchilardan bo'lib Molik ibn Anas (713-795) o'zining "Muvatto" (Yengillatilgan), Muhammad ibn Idris Shofe'iy (767-820) o'zining "Kitobul Umm" (Ona kitobi), "ar-Risola" asarlarini yozdi, Ko'fada Abu Yusuf "Kitobul Xaroj"ni ta'lif qildi. Muhammad ibn Hasan Shayboniy esa o'z asarlari bilan hanafiy mazhabini kamolga yetkazdi.

Abu Hanifaning (r.h.) shogirdlari ta'lif qilgan eng ahamiyatli asarlar ikki qismga – "Zohirur rivoya" va "Zohirur rivoya" bo'lmagan kitoblarga bo'linadi. "Zohirur rivoya" kitoblari Muhammad Shayboniy qalamiga mansub oltita kitob hanafiy mazhabidagi eng e'tiborli kitoblar sanaladi, ularda kelgan masalalarga qarshi fatvo berish mumkin emas. Faqatgina zarurat yuzasidan, zamonlar almashishi yoki urf-odatlarining o'zgarishi sababli keyingi davr faqihlarining ittifoqlari bilan undagi ayrim hukmlar amaldan qoldirilib, boshqasiga almashtirilishi mumkin. "Zohirur rivoya" deb nom olgan e'tiborli manbalar quyidagilardir:

1) "Al-Mabsut" yoki "Al-Asl" (Kengaytirilgan). Muhammad ibn Hasan Shayboniyning ilk yozgan kitoblaridan bo'lgani uchun ham "al-Asl" ma'nosini olgan bo'lib, unda Abu Hanifa r.a. ning fatvo bergan masalalari to'plangan. Agar o'sha masalaga Abu Yusuf bilan Muhammad xilof qilishgan bo'lsa, u ham zikr qilib ketilgan. Agar hech qanday xilof qayd etilmagan bo'lsa, bu uch imomning ittifoq qilgan masalalari hisoblanadi. Ba'zi o'rinlarda Ibn Abu Layloning (693-765) fikrlari ham zikr qilingan.

Muhammad Shayboniydan rivoyat qilingan "Al-Mabsut" lar soni ko'p. Ularning eng zohirrog'i va eng mashhur nusxasi Abu Sulaymon Juzjoniyya (vaf. 200/815) tegishli. Shayxul Islom Abu Bakr Xoharzodaning (vaf. 483/1090) "Mabsuti Shayxil Islom" yoki "Katta Mabsut" nomli asari ham mashhur. Shamsul aimma Saraxsiy (1009-1090) va ustozi Shamsul aimma Halvoniy (vaf. 456/1063) da ham asarning bir qancha nusxalari mavjud. Zohirur rivoya masalalarini jamlab, Hokim Shahid (vaf. 334/945) "Kitobul Kofiy" asarini yozgan va u ham "Al-Asl" deb ataladi. Unga Shamsul aimma Saraxsiy va Shayxul islom Isbijobiylar (vaf. 535/1140) sharhlar yozishgan.

"Al-Mabsut" dastlab Qohirada 1954-yilda, sal keyinroq Qarachida 5 jild holatda nashr etilgan. Uning ayrim bo'limlari xususan "Fasod" qismi nemis tiliga ham tarjima qilingan [6:155]. "Kashfuz zunun"da zikr qilinishicha, bir g'ayridin olimi "Al-Mabsut" ni o'qib musulmon bo'ladi va "Kichkina Muhammadningiz kitobi shunday bo'lsa, katta Muhammadningiz kitobi qanday ekan?! deb hayratlangan.

2) "Al-Jomi' as-sag'ir" (Kichik to'plam). Bu kitobda muallif Abu Yusuf vositasi bilan Abu Hanifadan rivoyat qilgan masalalarni zikr etgan. Shuning uchun har bir bob "Muhammad Ya'qubdan, u esa Abu Hanifadan rivoyat qildi..." jumlasini bilan boshlanadi.

"Al-Jomi' as-sag'ir" garchi Muhammad Shayboniyning asari ekani aniq bo'lsa-da, aslida u tartibga solinmagan. Uni ikki shaxs - Abul Hasan ibn Ahmad Za'faroniy (X asr) hamda Abu Tohir Muhammad ibn Muhammad Dabbos (X asr)larda tartibga solib, mavzular bo'yicha boblarga ajratib chiqqani manbalarda zikr qilingan.

"Al-Jomi' as-sag'ir"da 1532 ta masala bayon etilgan bo'lib, 170 masalada ixtiloflar ko'rsatilgan. Asarda qiyos va istehson masalalari yo'q, faqat bir-ikki masaladagina ular ko'rsatilgan.

Abu Yusuf ushbu kitobni yozishni Imom Muhammadga tavsiya qilgan. Abu Yusuf hatto safarga chiqqanida ham mazkur kitobni yonidan qo'ymagan. "Kimki ushbu kitobni o'qimasa, fatvo berishga haqqi yo'q" deb uni madh qilgan.

Abu Ja'far Tahoviy (853-933), Abu Bakr Jassos (918-980), Abu Lays Samarqandiy (vaf. 393/1003), Abulqosim Roziy (vaf. 474/1081), Shumsulaimma Saraxsiy (1009-1090), Sadrul Islom Pazdaviy (vaf. 493/1099), Abul Mui'n Nasafiy (vaf. 508/1114), Abu Bakr Balxiy (553/1158), Abu Nasr Attobiy (vaf. 586/1190), Imom Qozixon (vaf. 592/1195) kabi mashhur faqihlar unga sharhlar bitishgan.

"Al-Jomi' as-sag'ir" Misrda "Amiriya" matbaasida 1884- yili "Kitobul xaroj" bilan birga nashr qilingan. Shuningdek, asar Hindistonda besh karra toshbosmalarda nashrdan chiqqan. Uning nemischa tarjimasi ham mavjud [6:156].

3) "Al-Jomi' al-kabir" (Katta to'plam). Bu muallifning eng ahamiyatli asarlaridan biri bo'lib, uning ikki tahrir qilingan varianti bor. Birinchi variantini Abu Hafs Kabir (767-831) va Abu Sulaymon Juzjoniy (vaf. 200/815) hamda Muhammad ibn Samoa kabi shogirdlari rivoyat qilganlar. Keyinchalik muallif bu asarga yana murojaat qilib, qayta ishlagan. Ayrim bob va mavzularni qo'shgan. Jummalarni tahrir qilib ixchamlashtirgan. Bu variantni shogirdlari yana qayta rivoyat qilganlar. "Al-Jomi' al-kabir" da Imom Muhammadning o'zi Abu Hanifadan rivoyat qilgan masalalarni jamlangan, unda Abu Yusufdan qilingan rivoyatlar uchramaydi. Mazkur asar bilan "Al-Jomi' as-sag'ir" fiqhiy dalillardan xoli, ularda oyat yoki hadisdan fiqhiy masalaning dalili keltirilmaydi. "Al-Jomi' al-kabir" Qohira va Haydarobodda 1937-yili nashr qilingan.

4) "As-Siyar as-sag'ir". Muallif mazkur asarida jihad hukmlarini bayon qilgan, unda nima mumkin, nima joiz emas, sulh, diplomatik muomala, o'lja va jang vaqtida bo'ladigan boshqa masalalarning hukmlarini zikr qilgan. Bu masalalarni muallif Abu Yusuf vositasi orqali Abu Hanifadan rivoyat qilgan.

5) "As-Siyar al-kabir". Bu muallifning oxirgi asarlaridan biri bo'lib, unda Abu Yusufning nomi umuman tilga olinmagan. Agar uning rivoyatiga ehtiyoj sezilsa, ishonchli odamning menga xabar berishicha deb unga ishora qilib ketilgan, xolos.

Muhammad ibn Hasan Shayboniyni mazkur ikki asari - "As-Siyar as-sag'ir" va "As-Siyar al-kabir" kitoblarida insoniyat tarixidagi davlatlararo

qonunlarning, diplomatik munosabatlarning nazariy qoidalari ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur kitoblar islomiy xalqaro huquqqa oid ilk asarlar hisoblanadi.

Muhammad Shayboniy mazkur asarida har bir masalani oyat va hadisdan dalillar keltirib isbotlab ketadi. Ba'zi o'rinlarda qiyosiy dalillar bilan o'z fikrini quvvatlaydi.

"As-Siyar al-kabir"ga bir qancha sharhlar yozilgan bo'lib, eng mashhur sharhi Shumsulaimma Saraxsiy (1009-1090) tomonidan bitilgan. Mazkur sharh Haydarobodda 1916-17-yillarda 4 jild, Qohirada 1957-60-yillarda 3 jild, va 1971-yili yana Qohirada 5 jild holida nashr qilingan. Asarning turkcha va fransuzcha tarjimalari ham chop etilgan [6:157].

6) "Az-Ziyodot" (Ziyoda masalalar). "Zohirur rivoya kitoblari"ga kiritilgan mazkur oltinchi asarni, garchi ba'zi tadqiqotchilar "Navodir"dan hisobshasda, lekin rivoyatining mashhurligi jihatidan "Zohirur rivoya kitoblari" ga kirishga haqlidir.

"Az-Ziyodot" da avvalgi beshta asarda bayon etilmagan masalalar to'plangani uchun shu nom bilan atalgan. Muallif "Al-Jomi' al-kabir"ni yozganidan so'ng juda ko'p masalalarning yechimi bayon etilmay qolganini sezib, mazkur kitobni yozishga jazm qiladi. Keyinchalik yana ba'zi masalalar chiqib qoladi, shuning uchun muallif tomonidan yana yetti bobdan (taloq, savdo, namoz mavzulariga oid) iborat "Ziyoda- tuz ziyodot" ("Az-Ziyodot"ga ziyoda masalalar) asari tasnif qilingan.

Hanafiylar olimlari mazkur kitobga katta e'tibor qaratganlar, unga sharhlar bitganlar, ixchamlashtirganlar. "Az-Ziyodot" bilan "Ziyodatuz ziyodot"ni bir asar sifatida ko'rganlar. Qozixon (vaf. 592/1195), Abu Hafs Sirojiddin Hindiy (vaf. 773/1371), Faxrul Islom Pazdaviy (1009-1089), Shamsulaimma Halvoniy (vaf. 456/1063), Abulqosim Attobiy (vaf. 586/1190) unga sharh yozganlar. Hokim Shahidning (vaf. 334/945) ham sharhi bor. Shamsulaimma Saraxsiy (1009-1090) mahbuslikda yotganida "Ziyodatuz ziyodot"ni shogirdlariga yoddan aytib yozdirgan.

Shumsulaimma Saraxsiyning "An-Nukot sharhuz ziyodot" (Nuktalar) va Abu Nasr Zayniddin Ahmad Attobiy Buxoriyning (vaf. 586/1190) "Sharhuz ziyodot" nomli sharhlari birgalikda asar Abul Vafo Afg'oniy tomonidan 1958- yili Haydarobodda nashr etilgan.

Abu Ja'far Tahoviy (853-933) fikriga ko'ra, Muhammad Shayboniyning "Sag'ir" so'zi bilan tavsif etilgan kitoblari Abu Yusufdan rivoyat qilingan asarlarni o'z ichiga olsa, "Kabir" so'zi bilan sifatlangan asarlari Abu Hanifa qarashlariga asoslangan. Ibn Nujaym Misriy (1519-1563) esa "Sag'ir" so'zi bilan sifatlangan asarlar Abu Hanifa va Abu Yusuf ittifoq qilgan masalalarni o'z ichiga olishini aytgan. Shuni aytish lozimki, tadqiqotchi Muhammad Abu Zahra Shayboniyning "Kitobul Asor" (Asarlar kitobi), "Al-Hujjatu ala ahlil Madina" (Madina ahliga qarshi hujjat) asarlarini ham ishonchli kishilar tomonidan rivoyat qilinganini inobatga olib, "Zohirur rivoya" tarkibiga kirishga haqli deb biladi [14:64].

"Zohirur rivoya" bo'lmagan kitoblar. Abu Hanifa shogirdlarining "Zohirur rivoya"ga kirgan oltita kitoblaridan boshqa asarlari "Zohiri rivoya" bo'lmagan manbalar tarkibiga kiritiladi. Rivoyat qilish jihatidan quvvati yetarli bo'lmagan bunday asarlar "Navodir" masalalari deb ham ataladi. Ularning eng mashhurlari quyidagilar:

1) "Kitobul xaroj" (Xirojga taalluqli masalalar kitobi). Abu Yusufning xalifa Horun Rashidga (786-809) atab yozgan risolasi bo'lib, davlatning moliyaviy masalalari, davlat boshqaruvi, yer va suvdan foydalanish masalalariga bag'ishlangan. Iqtisodiy masalalar va soliq hukmlari oyat hadis hamda sahobalarning fatvolari asosida bayon etilgan.

"Kitobul xaroj" Qohirada 1933- yili nashr etilgan. Asar italyan, fransuz, ingliz, turk tillariga tarjima qilingan.

2) "Kitobul asor" (Asarlar kitobi). Bu Abu Yusufning o'g'li Yusufning o'z otasidan naql qilgan asari bo'lib, Abu Yusuf ustozlari Abu Hanifaning hadislarini va sahoba hamda tobeinlardan qilgan rivoyatlari to'plangan. Shuning uchun asarni "Abu Hanifa ning musnadi" deyish to'g'riroq bo'ladi. U 39 bobda fiqhiy mavzularga ajratib chiqilgan va unda 1067 ta hadis rivoyat qilingan. Abu Yusufning "Kitobul asor" asari Qohirada 1936- yili nashr qilingan.

3) "Kitobul asor" (Asarlar kitobi). Muhammad Shayboniyning Abu Hanifadan rivoyat qilgan hadislarini, sahoba va tobeinlardan qilgan naqlari to'plangan ushbu asari Abu Hanifaning musnadi o'laroq muhim ahamiyatga ega. 80 dan ortiq fiqhiy mavzularga ajratilib tartiblangan mazkur kitob Abu Yusufning shu nomli asariga o'xshash. Abu Yusuf va Muhammadning "Kitobul asor"i

hanafiy mazhabining fiqhiy qarashlari manbalarini o'rganishda, undagi har bir masalaning oyat va hadisdan asli borligini bilishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bilan Abu Hanifa chiqargan har bir fatvoning islomdagi asl manbalardan asosi borligini anglatadi.

4) "Al-Hujjatu ala ahlil Madina" (Madina ahliga qarshi hujjat). Muhammad Shayboniy Imom Molikdan "Al-Muvatto" asarini eshitish va o'rganish uchun Madinai Munavvaraga borib uch yilcha turgan. U yerda Madina ulamolaridan hadislar tinglagan va ular bilan ilmiy munozaralar qilgan.

Madina ulamolari fikrlariga qarshi hanafiy mazhabining dalil va hujjatlarini shu asosda to'plab ushbu "Al-Hujja" asarini bitgan. Shuning uchun asar "Madina ahliga raddiya" deb ham ataladi.

Mazkur asarning asosan ikkita muhim ahamiyati borligi ma'lum. Asarni Muhammad ibn Idris Shofe'iy (767-820) o'zining "al-Umm" asarida to'g'ri va mustahkam sanad bilan rivoyat qilib, munozaraga kirishgan. U gohida hanafiy yonini olsa, gohida Madina ulamolari fikriga qo'shilgan. Ikkinchidan asardagi har bir masala qiyos, hadis bilan dalillangan, unga Shofe'iy fikrlarini ham qo'shilsa, asar turli fiqhiy qarashlarni o'zida to'plagan bo'lib xilof ilmi sohasida muhim manba bo'la oladi. Shuningdek, dalilli fikrlardan har bir mazhab, har bir fiqhiy yo'nalish vakillari istifoda qilishi mumkin. "Al-Hujjatu alo ahlil Madina" 1888- yili Laknau shahrida, 1966- yili Haydarobodda nashr etilgan.

5) "Ixtilofu Abu Hanifata va Ibni Abi Laylo" (Abu Hanifa bilan Ibn Abu Laylo orasidagi ixtilof). Abu Yusufning ikki ustozlari Abu Hanifa va Ibn Abu Laylo o'rtasidagi bir-biriga qarama-qarshi fikrlari bayon qilingan bo'lib, Abu Yusuf bu borada Abu Hanifa (rahimahulloh)ning fikrlariga moyillik bildirgan.

"Ixtilofu Abu Hanifata va Ibni Abi Laylo" asari 1938- yili Qohirada Shofe'iyning "Kitobul Umm" asari tarkibida nashr etilgan [11:87-150].

6) "Ar-Radd ala siyaril Avzoiy" (Avzoiyning "siyar" masalalariga raddiya). Mazkur asarda Abu Yusuf siyar jangu-jadal, sulh, omonlik berish kabi masalalarda Avzoiyga raddiyalar berib, bu boradagi Abu Hanifaning qarashlariga yon bosadi.

"Ar-Raddu ala siyaril Avzoiy" asari ham Qohirada 1958- yili Shofe'iyning "Kitobul Umm" kitobi tarkibida nashr etilgan [11:303-336].

Yuqorida zikr etilganlardan tashqari Muhammad Shayboniyning Sulaymon ibn Said Kaysoniy (IX asr) rivoyat qilgan “Kaysoniyot”, muallif Jurjon shahrida turganida yozgan “Jurjoniyyot”, Horun degan shogirdiga atab bitgan “Horuniyyot”, Raqqa shahrida qozi bo‘lib turganida chiqargan fatvolari to‘plami “Raqqayot” kabi asarlari, Abu Yusufning “Al-Amoliy” asari, Hasan ibn Ziyodning (vaf. 204/819) “Al-Mujarrad” (boshlang‘ich, dastlabki) nomli kitobi “Zohirur rivoya”ga kiritilmagan “Navodir” jumlasidagi manbalar deyiladi. Afsuski, ushbu nodir manbalar hozirgacha topilib, nashr qilingan emas.

XULOSA

Zikr qilingan kitoblar hanafiy mazhabida ilk marta ta’lif etilgan kitoblar sirasisiga kiradi. Mazkur kitoblarni Abu Hanifa vafotlaridan so‘ng shogirdlari uztozlarini har bir masalada bergan fatvolarini ba’zan esa ustozlarini fatvolarini yoniga o’sha masalada o‘zlarini fikrlarini ham bayon qilishgan. Mazkur kitoblar asosan Abu Hanifaning buyuk shogirdi Imom Muhammad tomonlaridan bizga naql qilingan. Bu kitoblar tepada ta’kidlab o‘tilganidek mazhabda qadri va nufuzi baland hisoblanadi. Negaki mazkur kitoblar hanafiy mazhabini mazhab sifatida shakllanishiga zamin yaratgan. Mazhabning asli mazkur kitoblarda bayon qilingan. Keyingi kelgan mutaaxxir ulamolar ham o‘z asarlarini mazkur kitoblar asosida yozganlar. Bu esa Imom Muhammadning kitoblari mazhabda ahamiyati nechog‘lik yuksak ekanini ifoda etadi. Shuning uchun har qanday “Zohirur rivoya” kitoblariga zid kelgan ma’lumotlar qabul qilinmaydi. Bu esa ulamolarning muqaddam o‘tganlarning asarlariga muhabbati kuchli, ahamiyati katta ekanini ifoda etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Abdulhay Laknaviy. Al-Favoidul bahiya fi tarojimil hanafiya ma’at Ta’liyyotis saniya. – Qozon, 1902.
2. Abdulhay Laknaviy. Umdatur rioya fi halli sharhul viqoya (Muqaddima). – Hindiston: Yusufiy, 1999.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Manaqibu Imom Abi Hanifa va sohibayhi Abi Yusuf va Muhammad ibn Hasan. – Haydarobod: Lajnatu ihyo al-maorifin no‘moniya, 1998.
4. Abul Muayyad Muvaffaq ibn Ahmad Makkiy Al-Xotib Xorazmiy. Manaqibu Abi Hanifa. – Haydarobod: Al Maorifu Nizomiya, 1902.
5. Abul Muin Maymun ibn Muhammad Nasafiy. Tabsiratul-adilla fi usuliddin / X. Otay nashrga tayyorlagan. 2 jildli. – Anqara, 1993.
6. Aminov Hamidulla, Primov Soatmurod. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istelohlari. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 400.
7. Muhammad Ali Tahonaviy. Kashshafu istilohat ul funun val ulum / Tahqiq: Ali Daxruj. II juz. – Bayrut: Maktabatu Lubnon, 2006. – 2205 b.
8. Mustafo Ahmad Zarqo. Al-Madhalul fiqhul omm. II jild. – Damashq: Dorul qalam, 2012. – 1159 b.
9. Muhammad Abu Zuhra. Abu Hanifa. Hayotuhu va asaruhu, arouhu va hiqhuhu. – Qohira: Dorul fikril arabiy, 1977. – 1072 b.
10. Muhammad ibn Hasan Shayboniy. Kitobul osor. – Haydarobod: Lijannati ihyail maarifil nu‘maniya, 2019. – 860 b.
11. Muhammad ibn Idris Shofe’iy. Kitob al-Umm. – Qohira: Dorul vafo, 2006. – 6465 b.
12. Muhammad Abu Zuhra. Tarix nusus fil fiqhil islomiy. II jild. – Bayrut: Dorul fikril arabiy, 2007. – 1354 b.
13. Muhammad Amin Ehson Mujaddidiy Barakatiy. Qovaidul fiqh. – Bayrut: Dorun nashr, 2013. – 748 b.
14. Tuychiboyev A. Muhammad ibn Hasan Shayboniyning asosiy asarlari. Zohir ar-rivoya // Barkamol avlod – kelajak poydevori II. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 207 b.